

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.K.Kurbaniyazova	
Milliy mentalitetning tilda namoyon bo'lishi	106
Sh.D.Shodmonova	
Jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati	110
A.I.Samijonov	
"Xavfsizlik" va "Kiberxavfsizlik" atamasining mazmun-mohiyati va jamiyat hayotida xavflilik darajasini baholanishi	114
N.X.Djalalova	
Yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi	119
I.Z.Nazarova	
Yangi O'zbekistonda milliy san'at taraqqiyotining istiqbollari	123

ТАРИХ

A.B.Musayev	
Qo'qon xonligining tashkil topishi arafasida Farg'ona vodiysi	129
Ф.А.Эгамбердиев	
Некоторые вопросы использования института жалоб как способ защиты прав участников на досудебной стадии уголовного процесса	133
M.M.Xolmatov	
O'zbekistonda kollektivlashtirish asosida agrar sohaning isloh qilinishi va uning oqibatlari.....	138
N.R.Israilov	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati Lui Le Rua talqinida.....	144
O.B.Nizomiddinov	
Farg'ona vodiyisida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi: birinchi oliy ta'lim muassasaning tashkil etilishi	149

ADABIYOTSHUNOSLIK

Q.V.Yo'lichiyev	
O'zbek she'riyatida anor obrazining tadriji takomili	156
A.Badalova	
The effect of war to the inner world of characters in leo tolstoy's novel "War and peace"	161
S.F.Yuldasheva	
Xalq qissalarida Hazrati Xizr Alayhissalom obrazi	166
D.I.Nazarova	
Hozirgi aruziy she'rlarning qofiya tuzilishi	170
S.A.Xodjayev, O.Y.Sobirjonova	
Epik asar syujetida uchrashuv Motivining o'rni (L.Tolstoyning "Baldan so'ng" hikoyasi misolida).....	175
M.R.Oxunova	
Sharlotta Bronte "Jeyn Eyr" romanida xarakter tasviri	178
L.Hasanova	
Aesthetics of the literary direction romanticism	182
Q.V.Yo'lichiyev	
Abdulla sher sonetlari tahlili	186
Z.F.Shukurova	
"Tarixi Rashidiy" asarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil talqini	192

TILSHUNOSLIK

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Metaforalarning poetik matndagi o'rni (Siddiq Mo'min ijodi misolida).....	195
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Zar" va "Zarra" asoslari bilan bog'liq leksemalar xususida	198



UO'K: 37.012.85

**YOSHLAR ESTETIK TAFAKKURINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOIY-MADANIY
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODOLOGIYASI**

**МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В
ПОВЫШЕНИИ ЭСТЕТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ**

**THE METHODOLOGY OF USING SOCIO-CULTURAL TECHNOLOGIES TO ENHANCE
THE AESTHETIC THINKING OF YOUNG PEOPLE**

Djalalova Nigora Xusanovna 

Farg'ona davlat universiteti musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Madaniyat va san'at qadriyatlarini farqlay olishga, tushunishga, tafakkur etishga yordam beruvchi barcha shakllar, harakatlar-ijtimoiy-madaniy texnologiyalar deb tushuniladi. Madaniyati rivojlanmagan davlatda ijtimoiy rivojlanish ham bo'maydi, chunki ular bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar faoliyati nazariy va amaliy faoliyatda ko'rinati va estetik metodologiyaning asosini tashkil etadi. Buning uchun esa ijtimoiy-madaniy texnologiyalar tizimini loyihalashtirishni zamonga mos ravishda qiziqarli etib murakkablashtirish, shuningdek, ta'llimda, madaniyat va san'atda rivojlanish jarayonlari texnologiyasini ishlab chiqishimiz zarurdir.

Ushbu maqolada yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi haqida so'z yuritiladi.

Аннотация

Под социокультурными технологиями понимаются все формы и действия, которые помогают различать, понимать и осмысливать ценности культуры и искусства. В стране с неразвитой культурой не будет и социального развития, поскольку они взаимосвязаны. Активность социокультурных технологий проявляется в теоретической и практической деятельности и составляет основу эстетической методологии. Для этого необходимо сделать проектирование системы социокультурных технологий интересным и сложным в соответствии со временем, а также разработать технологию процессов развития в образовании, культуре и искусстве.

В данной статье говорится о методике использования социокультурных технологий для совершенствования эстетического мышления молодежи.

Abstract

Sociocultural technologies are understood as all forms and actions that help to distinguish, understand and comprehend the values of culture and art. In a country with an underdeveloped culture, there will be no social development, since they are interconnected. The activity of sociocultural technologies is manifested in theoretical and practical activities and forms the basis of aesthetic methodology. To do this, it is necessary to make the design of the system of sociocultural technologies interesting and complex in accordance with the times, as well as to develop a technology for the development processes in education, culture and art.

This article discusses the methodology for using sociocultural technologies to improve the aesthetic thinking of young people.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy-madaniy texnologiyalar, metodologiya, madaniyat va san'at, estetik tafakkur, kutubxona, muzey, san'at turlari.*

Ключевые слова: *социокультурные технологии, методология, культура и искусство, эстетическое мышление, библиотека, музей, виды искусства.*

Key words: *socio-cultural technologies, methodology, culture and art, aesthetic thinking, library, museum, types of art.*

KIRISH

Madaniyat va san'at qadriyatlarini farqlay olishga, tushunishga, tafakkur etishga yordam beruvchi barcha shakllar, harakatlar-ijtimoiy-madaniy texnologiyalar deb tushuniladi. Madaniyati rivojlanmagan davlatda ijtimoiy rivojlanish ham bo'lmaydi, chunki ular bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar faoliyati nazariy va amaliy faoliyatda ko'rinati hamda estetik metodologiyaning asosini tashkil etadi. Buning uchun esa ijtimoiy-madaniy texnologiyalar tizimini

loyihalashtirishni zamonga mos ravishda qiziqarli etib murakkablashtirish, shuningdek, ta'limda, madaniyat va san'atda rivojlanish jarayonlari texnologiyasini ishlab chiqishimiz zarurdir. Ma'lum bir yo'nalishninig nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish uslubi "metodologiya" deyiladi [8]. "Ijtimoiy", "madaniyat", "dam olish" atamalarining mohiyatini ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi ilmiy tahlil qilib beradi. Ular esa ijtimoiy-madaniy texnologiyalarda asos hisoblanadi. Madaniyat va san'at qadriyatlarini ijtimoiy jarayonlari bilan ongli va ilmiy ravishda saqlash, rivojlantirish "ijtimoiylikdan" darak bersa, madaniyat esa ijtimoiy hayotni mazmun bilan to'ldiradi va davlat siyosati darajasigacha ko'taradi. Yoshlarning estetik tafakkurni yuksaltirish ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning eng muhim vazifalaridan birdir. U davlat rivojlanishida ro'y berayotgan yangi ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar bilan birga, shuningdek, estetik tafakkurni shakllantirib, rivojlantirishning hamda yuksaltirishning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi ijtimoiy-madaniy texnologiyalar tizimi bilan amalga oshirilishi kerak. Madaniyat va san'at janrlari ijtimoiy-madaniy texnologiyalar orqali hissiy tafakkur etilib, idrok qilish o'rgatiladi. Shunday qilib estetik didni shakllantirish muammosi hal etiladi. Bu esa yoshlarda estetik tafakkurni yuksaltirishga oid bilish talablarini oshiradi hamda an'analar go'zalligini anglay oladigan, madaniyatli yoshlarni shakllantirishda muhim o'rinni ksab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Rus olimi, falsafa fanlari doktori, professor Sergey Borisovich Yerasov yoshlar hayotda o'zlarining estetik jihatdan o'rinalarini topishlari uchun umrлari davomida madaniyat bilan hamnafas yashab, ta'lim olib shakllanishlari zarurligini ta'kidlaydi. Buning uchun esa madaniyat va san'at xodimlarining ustozlikda ma'suliyati katta ekanligini aytib o'tadi [6, b.20-21]. N.A.Berdyaev, N.O.Loskiy, P.A.Florenskiy kabi faylasuflarning tadqiqotlarida yoshlar madaniyatning asosi hisoblanadi. Olim A.F.Losev o'z tadqiqotlari natijasidan kelib chiqib, go'zllikni tafakkur etishga o'rgatadigan yagona usul bu-ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi -deb fikr bildiradi.

Ijtimoiy-madaniy texnologiyalarga bag'ishlangan tadqiqotlardan O.A.Vaxromeeva [4], Yu.B.Vladimirova [5], A.D.Jarkov [7], T.G.Kiseleva [9], Yu.D.Krasilnikov [9], E.A.Malyanov [12], A.V.Sokolov [14], N. N.Yaroshenko [16] va boshqalarni ishlarini misol qilishimiz mumkin. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar faoliyati metodologiyasining asoslaridan biri- bu yoshlarning ijtimoiy-madaniy tomondan tafakkurining o'ziga xosligidir. Ushbu o'ziga xoslik olim M.V.Shakurovning ta'kidashicha yoshlar tomonidan o'z-o'zini madaniyat va san'at tomonidan qay darajada anglash elementida belgilanib, bu estetik va ta'lim-tarbiya jarayoniga bog'liq bo'ladi [15,b.193]. Yoshlar estetik tafakkurni shakllantirib, rivojlantirib, yuksaltirishga qaratilgan harakatlarning ijtimoiy, madaniy, pedagogik tizimlari ijtimoiy-madaniy texnologiyalar faoliyatidir. Muzey, kutubxona, san'at turlari -ijtimoiy-madaniy texnologiyalar bo'lib, ular yoshlar estetik tafakkurni yuksalishiga yordam beradi. Bunda yoshlarning ijodiy qobiliyatları rivojlanadi, qadriyatlarga qiziqishi ortadi va ularning jamiyat bilan ijtimoiylashuvi hosil bo'ladi [11].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan biri bo'lgan, san'at yo'nalishiga kiradigan muzeylarni tahlil qiladigan bo'lsak, "muzey" so'zi yunonchadan "muzalar uyi" degan ma'noni bildiradi. Muzeylarning vazifasi- moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklarini to'plash, o'rganish, saqlash va ko'rgazmaga qo'yish bilan shug'ullanish hamda bu orqali muzeylarni insonlarga kerakli ma'lumotlarni, ko'rgazmalarni ularishish, estetik bilimlarini oshirishdir. Shuningdek, muzeylarni- san'at va madaniyat ahlining tajribalari xulosalarini ko'rgazma qiladigan makon desa ham bo'ladi. Bu orqali insonlar o'tmisht va kelajakni solishtiradilar, o'zlarini uchun muhim bo'lgan ma'nolarni topadilar. Muzeylar orqali dunyo falsafasini va shaxs takomillashuvini o'rganish mumkinligini deyarli barcha davr faylasuflari ta'kidlaganlar.

Ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan biri bo'lgan- kutubxonalar ham doimo tadqiqotchilarning e'tiborini tortgan. Chunki kutubxona- ijtimoiy-madaniy muassasa hisoblanadi. O'rta asrlarning ko'plab arboblari kutubxonaning ahamiyatiga to'xtalib o'tganlar, insonlarning ta'limida, madaniy ehtiyojlarida kutubxonaning mohiyatini ochib berishga harakat qilganlar. Ushbu O'rta asrlar va Uyg'onish davri olimlari quyidagilardir: F.Cassiodor, P. d Ashery, D. dyu Men, G. Node, R. de Furnival va boshqalar. Ma'rifat davridan boshlab esa kutubxona tizimli tadqiqot ob'ektiga aylanadi. Kutubxonalar faoliyatini turli tadqiqotchilar turlicha tavsiflashgan. Rus tadqiqotchilardan O.Kalegina kutubxonalarini jamoatchilik fikriga ko'ra o'zgarishi mumkin bo'lgan tashkilot deb ataydi [10]. Kutubxonalar ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ajralmas bir qismi bo'lib u bilimlar makonidir, degan tavsifni tadqiqotchi

FALSAFA

olim M.Sherdin beradi [17]. Rus tadqiqotchisi M.Matveev esa kutubxona faoliyatini aholining turli guruhari ongida shakllangan barqaror qiyofasi va kutubxona tomonidan uning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar majmui, deb izoh bergen va o'zgarishlar uning ijtimoiy-madaniy texnologiya sifatidagi mavqeini oshitishini ta'kidlab o'tgan [13]. XX-asrning boshlaridan boshlab xorijiy tadqiqotlarda kutubxonalar faoliyatiga yanda katta e'tibor berila boshlandi. Bu borada F.Gereben o'zining sotsiologik tadqiqotlariga tayanib, insonlar kutubxonaga qiziqsa ham, qiziqmasa ham baribir ular kutubxonalar zarur bilim va yangiliklar manbai ekanliklarini tushunishlarini ta'kidlab o'tadi[17].

Kutubxonalar ishini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ko'plab qaror va farmoishlar chiqarilgan [1,2,3]. Bundan ko'rinish turibdiki, jamiyat va xalq uchun kutubxonalar katta ahamiyatga ega ekan.

San'at-insonlar tomonidan yaratilgan barcha go'zal va betakror narsalardir. San'atning janrlari, ya'ni yo'naliishlari ko'pdir: san'at- bu musiqa, raqs, tasviri san'at, teatr va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Qadimdan insonlar o'z hissiyotlarini, kechinmalarini, xursandchilik va qayg'ularini tasviriy san'at, arxitektura, raqs, teatr, musiqa orqali bayon etganlar. Bizning XXI-asrimizda har bir jabha kabi madaniyat va san'at ham jadal suratlar bilan rivojlanmoqda. Insonlarga, ayniqsa yoshlarga madaniyat va san'at juda zarur, chunki u o'zini anglash tuyg'usini shakllantirib rivojlanadir, rivojlangan jamiyatda yangi estetikaga asos bo'ladi. Pirovard natijada bor qadriyatlarimiz mustahkamlanib, yangi davr qadriyatlarini namoyon bo'ladi, insonlar go'zallikka intila boshlaydilar. San'atda rasmlarni tomosha qilish, musiqa tinglash, ilhomlanish kabi hislar og'zaki shakllar ishtirokisiz tafakkur etiladi. San'at orqali yoshlar rivojlanadi, madaniyatli bo'ladi, axloqiy- estetik fazilatlari shakllanadi. Shuningdek, san'at shaxsning ichki dunyosini olib berishga, estetik idrokni, o'ziga xoslikni rivojlanirishga, go'zallik va ilhomdan zavqlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari san'at insonlarning his-tuyg'ularini ifoda etishlariga, boshqarishga va hayotda go'zallik va uyg'unlikni topishga yordam beradi. Dunyoning estetik ifodasi-bu san'at asarlari bo'lib, ular shaxsni doimo qamrab turadi va olamni amaliy o'rganishga yordam beradi, his-tuyg'ularga ta'sir qiladi, shuningdek, ilhomlanadir. San'at insonlarni birlashtiradi, hayotini turli ifoda va g'oyalar mazmuni bilan boyitadi. Olimlar muntazam ravishda ijodkorlik bilan shug'ullanadigan odamlar stressga chidamli bo'lishlarini, yangi sharoitlarga tezroq moslashishlarini va muammolarni hal qilishning yangi usullarini topishga qodir ekanligini isbotlaganlar.

Falsafiy nuqtai nazar bilan qaralganda san'at- bu go'zallik, estetikadir. San'at falsafasi - madaniyat falsafasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati estetikadir. Estetika insonlar ongiga ta'sir qilib, ularning ma'naviy va madaniy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Nemis teatr arbobi Bertold Brext san'atning turlari eng buyuk san'at bo'lgan- yer yuzida yashash san'atiga xizmat qiladi, degan juda chiroyli fikrni aytib o'tgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yoshlar estetik tafakkurini shakllantirish va rivojlanirishga, shuningdek yuksaltirishga katta ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-madaniy texnologiyalar darajasini oshirish muhimdir. Buni olimlarning, tadqiqotchilarning ko'plab izlanishlar natijalaridan kelib chiqib aytishimiz mumkindir. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar yoshlar hayotini hissiy, jozibali ijod shakllari, faoliyat turlari orqali mazmun bilan to'ldiradi. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar faoliyatidan bahramand bo'lgan yoshlar ongi ham go'zallahadi, ham ijtimoiylashadi. Shuning uchun ham biz ijtimoiy-madaniy texnologiyalar yoshlarni ijtimoiylashuvlari va shaxsiy estetik rivojlanishlarida katta ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-madaniy muhit uchun sharoit yaratadi, deb ayta olamiz. Yoshlarda ijodkorlikni, go'zallikni anglay oladigan fazilatlarni shakllantirish, rivojlanirish uchun ijtimoiy-madaniy texnologiyalar orqali sharoitlar yaratish, ularning estetik tafakkurlarini yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar jadal rivojlanirilsagina yuqori madaniyatga ega, an'analar go'zalligini anglay oladigan, yangi yosh shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2006 yil 20- iyundagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi
№ 381-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018 yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14-dekabrdagi "2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash" to'g'risida №781-son qarori
4. Вахромеева О.А. Социально-культурная деятельность как фактор профилактики девиантного поведения детей-сирот в интернатных учреждениях / О.А. Вахрамеева// - Шадринск: ШГПИ.- 2013. –С. 5-188 с.
5. Владимирова Ю.Б. Социально-культурные условия формирования эстетической культуры подростков средствами предметно-пространственной среды: автореф. дис. канд. пед. наук / В.Б. Владимирова// Казань.- 2013. –С. 5-21.
6. Ерасов Б.С. Социальная культурология. З-е изд. Текст. / Б.С. Ерасов// М.: Аспект- Пресс.- 2000.-С. 9-590 с.
7. Жарков А.Д. Теория и технология культурно-досуговой деятельности / А.Д. Жарков// М.: МГУКИ.- 2007. -С.3- 480 .
8. Ильичев Л.Ф. Философский энциклопедический словарь/ П.Н. Федосеев, С.М. Ковалев, В.Г. Панов, Н.М. Ланда, Э.А. Араб-оглы, В.С. Степин// Советская энциклопедия. Москва.-1989.- С. 3-801.
9. Киселева Т.Г. Социально-культурная деятельность / Т.Г. Киселева, Ю.Д. Красильников// М.: МГУКИ.- 2004. –С. 3-539.
10. Калегина О.А. Имидж библиотеки в условиях интеграции в мировое информационное пространство/ О.А. Калегина// Казань: Изд-во Казанского государственного университета культуры и искусств.- 2008.-С. 60-85.
11. Литвак Р.А. Соотношение социального воспитания, социализации и социальнокультурного развития личности в детстве / Р.А. Литвак, Г.Я. Гречева // Вестник Челяб. гос. пед. ун-та. – 2013. – № 9. – С. 96–104.
12. Малянов Е.А. Специфика социальнокультурной инноватики: интеграционный аспект / Е.А. Малянов // Вестник Моск. гос. ун-та культуры и искусств. – 2010. – № 6. – С. 76–83.
13. Матвеев М.Ю. Образ библиотеки в произведениях художественной литературы: Литературно-социологические очерки/ М.Ю. Матвеев, Д.К. Равинский// СанктПетербург: Изд-во РНБ.- 2003.-С. 3-136.
14. Соколов А.В. Феномен социальнокультурной деятельности / А.В. Соколов// – СПб.: СПбГУП.- 2003. –С. 14- 204.
15. Шакурова М.В. Аксиологические аспекты формирования социокультурной идентичности личности/ М.В. Шакурова // Понятийный аппарат педагогики и образования: сб. науч. трудов. Вып.6. Екатеринбург: СВ-96,- 2010.-С.192-2001.
16. Ярошенко Н.Н. Педагогические парадигмы теории социально-культурной деятельности: дис. д-ра пед. наук / Н.Н. Ярошенко// – М.- 2000. – С. 3-414.
17. Scherding M.J. Shattering our stereotype: Librarian's new image/ M.J. Scherding, A.K. Beaubien// Libr. J.- 1995,- № 120.-С. 35 – 39.